

**ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN VA ZAIF ESHITUVCHI
BOLALARNI O'QISHGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

O'ktamova Niginabonu Sherali qizi

*Buxoro davlat pedagogika institutu
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikning to'g'ri qo'llanilishi, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikning usul va metodlari hamda o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar keng bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq, o'qish, savod, to'g'ri va ravon nutq, savodga tayyorgarlik.*

**ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ЧИТАНИЮ ДЕТЕЙ С
ДЕФЕКТАМИ СЛУХА И СЛАБОСЛУХАМИ**

Уктамова Нигинабону Шерали кизи

*Бухарский государственный педагогический институт
дошкольное образование, студентка 1 курса*

Аннотация. *В данной статье подробно описаны сведения о правильном использовании речи, обучении чтению и грамоте, методах и приемах обучения речи, чтению и грамоте, а также их специфические особенности.*

Ключевые слова: *речь, чтение, грамотность, правильная и беглая речь, подготовка к грамоте.*

**PECULIARITIES OF TEACHING TO READ TO CHILDREN WITH
HEARING DEFECTS AND HEARING DEFECTS**

Uktamova Niginabonu Sherali kizi

*Bukhara State Pedagogical Institute
preschool education, 1st year student*

Annotation. *In this article, information about the correct use of speech, reading and literacy training, methods and methods of speech, reading and literacy training, as well as their specific features, is described in detail.*

Key words: *speech, reading, literacy, correct and fluent speech, preparation for literacy.*

Maktabga tayyorlov guruhida ona tilini o'rgatish ishining alohida bo'limi savodga o'rgatish bo'limidir. Mazkur bo'lim eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda dastlabui o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish, aniqrog'i yozma nutqni o'zlashtirish vazifasini amalga oshirilishini nazarda tutadi. Og'zaki nutqdagidek kabi, yozma nutqning impressiv shakli, ya'ni o'qish va ekspressiv shakli – yozuv ajratiladi. Impressiv va yekspressiv nutqni egallashda nafaqatgina kar bolalar, balki eshitadigan balalar xam katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Qiyinchiliklar o'qish mexanikasini egallash va o'qiganlarning mazmunini tushunib yetishda ko'zga tashlanadi.

O'qish va yozish malakalari – nutqiy malakalaridir, o'qish va yozish esa nutqiy faoliyatning turlari hisoblanadi. Nutqiy faoliyat va malakalarni egallashda motiv (sabab) va ehtiyojlar katta ahamiyatga ega. Eshituvchi bola tomonidan og'zaki nutq muloqot jarayonida o'z – o'zidan tabiiy ravishda o'zlashtiriladigan bo'lsa, yozma nutq ongli va maqsadli ravishda o'zlashtirilishini talab etadi.

O'qish va yozuvning psixologik – fiziologik negizini o'rganib chiqqan psixologlar, tilshunoslar, metodislar nutqiy faoliyatning mazkur turlarini egallash uchun bolalardan iroda, aql, jismoniy kuchning talab etilishini e'tirof etadi. O'qitishning boshida o'qish jarayoni sekin kechadi: bola bitta harfni idrok etadi, tanib oladi, kerakli tovushga aylantiradi. So'zda qancha harf bo'lsa, shucha aqliy – irodaviy harakat bajariladi. O'qishning texnik tomonini o'zlashtirilishi ham diqqat e'tibor va g'ayratni talab etadi. Biroq o'qilgan so'zning ma'nosi har doim ham bolalar tomonidan yaxshi tushunilmaydi. O'qilganlarning ma'nosini tushunishi o'qish bilan bir vaqtda kechmaydi. O'qish chog'ida tovushlarni birlashtirish katta qiyinchiliklarni tug'diradi, bolalar alohida tovushlarni talaffuz etadi, lekin bo'g'inlay olmaydi.

Hozirgi paytda umumta'lim maktablarda bolalar sovodini chiqarishda tovushli analitik – sintetik metod qo'llaniladi. Ushbu metodga ko'ra o'qituvchi bolalarga jonli nutqdan so'zlarni, so'zlardan bo'g'inlarni, bo'g'inlardan tovushlarni ajratishni o'rgatadi. So'zdagi tovush va uning talaffuzi ajratilgandan keyin o'qituvchi

tovushning belgisini, ya'ni harfni ko'rsatadi. Keyin bolalar yangi harflardan bo'g'in va so'zlarni tuzishga o'rganadilar.

Surdopedagogikada mavjud bo'lgan turli tizimlar doirasida sovod o'rgatish muassasalariga turlicha yondashilgan. Mimik tizimda asos etib, bolalarning imo ishoralari nutqini rivojlantirilishi olinadi. Yozma nutqga imo ishorali belgilarni grafik belgilariga o'tkazish orqali o'rgatilar edi. Yozishga o'rgatish jarayoni quydagi ko'rinishda bo'lgan: buyum va u haqidagi tasavvuridan mimik belgiga, undan yozuvga; o'qishda – grafik obrazdan – mimik belgiga, undan predmet tasavvurga o'tiladi.

Tilga o'rgatishning yozuvli tizimda asos etib, yozma nutq olinar edi. Yozma nutq negizida og'zaki nutq shakllantiriladi. Yozuvda tushunchalar grafiklarga aylantiriladi, o'qishda grafik obrazlarda – tushunchalarga o'tilardi. Ushbu ikki tizim amalyotida savotga o'rgatish jarayoni grafik obrazlarni eslab qolish bilan taqqoslashga keltirilardi. Savod o'rgatish yozma nutqni rivojlantirish bilan uyg'unlikda kechadi, shu sababli nutq o'stirish deganda savod o'rgatish ham nazarda tutiladi.

Savodga o'rgatish muammolariga mamlakatimiz surdopedagoglari U.Yu.Fayziyeva, F.J.Alimxodjayeva, I.K.Kislitsina, X.Gaynuddinovlarning ilmiy izlanishlari bag'ishlangan. Ilmiy tadqiqotlarda o'qishga o'rgatishda analitik – sintetik tovushli metoddan foydalanish yo'llari ochib beriladi.

Har bir pedagogik tizimning o'ziga xosligi o'sha tizimning nazariy asoslari, undan kelib chiqqan ta'lim, yo'nalishlari konkret tashkiliy sharoit va shakllariga bog'liqdir.

Surdopedagogikaning barcha tanish bo'lgan tizimlarida birinchi navbatda ta'limning turli bosqichlari ajratilgan. Til bo'yicha barcha o'zlashtiriladigan material bosqichlari bo'linib mazmun va hajm jixatdan murakkablashib, kengaytirilib borgan.

Ta'limning muayyan bosqichi uchun nutqiy malakalarning rivojlantirishga bitta talablar, keyingi bosqichda murakkabroq talablar qo'yilgan. Ta'limni bosqichma bosqich berilishi ko'p xolda bir tomonlama belgilanib, bolalarga yoki

dastlabki bilim asoslarini olish imkonichtlari yaratilgan yoki maktab kursi bo'yicha keng ma'lumot olish sharoiti yaratilgan. To'liq ma'lumot olish imkoniyati bolalarning aqliy qobiliyati, eshitish holati, oilaviy tarbiya sharoiti, eshitish qobiliyatini pasayish vaqtiga bog'liq bo'lsada, eng muhimi kar bolaning ota – onalarining moddiy – ta'minot ahvoriga bog'lanardi. Ta'lim olish muddati kar bolalar uchun turlicha bo'lgan.

Kar bolalarning zamonaviy maktabida 12 yillik ta'lim olish belgilanib uning davomida umumta'lim maktabining 9 yillik hajmdagi ma'lumot beriladi. Ta'limni bosqichlarga ajratish avvalo ta'limning asosiy maqsadi 9 yillik maktabi o'quv fanlari doirasida umumta'lim ma'lumot berish, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida davom etirishi uchun zamin yaratish.

Ta'lim jarayonining bosqichlarga ajratilishi kar bolalarning yosh va psixofizik imkoniyatlariga ham bog'liqdir. Ba'zi tilni egallashga oid va nutqiy malakalarga qo'yiladigan talablar katta yoshdagi bolalar tomonida, psixik bilish jarayonlarining ma'lum darajaga yetgan holdagina o'zlashtirishi mumkin, ayrim talablar faqat boshlang'ich maktabda o'zlashtirilishi mumkin.

Shunday qilib kar bolalar maktabida ona tilini o'qitishni bosqichlarga bo'linishi didaktik (ta'limni hajmi) psixofiziologik, lingvistik omillarga bog'liqdir.

Kar bolalarga ta'lim berish kursi 4 ta asosiy bosqichga ajratiladi.

Dastlabki bosqich – maktabgacha davrni o'z ichiga oladi va bolalar maxsus maktabgacha ta'lim muassasasiga borgan xolda 4 – 5 yil davom etadi maktabgacha tayyorgarlik ko'rmagan bolalar maktabning tayyorlov sinfida ta'lim oladilar.

Ikkinchi bosqich – 1-4 boshlang'ich sinflarni qamrab oladi. Unda 7-yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalarda ta'lim oladilar.

Uchunchi bosqich – 5-7 o'rta sinflarni qamrab, unda 11-13 yoshli o'quvchilar ta'lim oladilar.

Turtinchi bosqich – 8-12 sinflarni qamrab oladi.

Ko'rsatilgan bosqichlar ona tili faniga kirgan o'quv fanlarining vazifalari, mazmuni, bolalarni nutqiy rivojlantirish yo'nalishlari, qo'llaniladigan metodik yo'llari bilan farqlanadi.

Tayyorlov bosqichning bosh vazifasi – qisqa muddat ichida muloqot uchun zarur boʻlgan nutqiy materialni egallashini taminlashdir.

Taʼlimni mazmuni dastlabki muomilani oʻrnatish va egallangan tajriba va bilish faoliyatini nutqida aks ettirishda ishtirok etadigan darak, undov, soʻroq gap va soʻzlardan tashkil topadi.

Tilga oid qobilyatlarni rivojlantirish nutqni idrok qilish, tushunish, bayon etish va hosil qilish psixofiziologik mehanizmini shakllantirishdir. Bolalar taʼlimning dastlabki kunlaridanoq shunday sharoitga tushib qoladiki, ularga murojat etilgan nutqqa munosabat bildirish, mazmuniga qarab nima soʻrayotgani, nimaga undalyotgani tushunish zarurati toʻgʻiladi.

Nutqni idrok etish talaffuzga oʻrgatish va eshitish qobilyatini rivojlantirish darslarida oʻrgatiladi. Nutqni qabul qilish va ifodalash jarayonlarini jadallashtirish, maqsadida daktilolamyadan foydalaniladi. Maktabgacha tayyorgarlikni koʻrmagan bolalar uchun daktilologiya dastlabki nutq shakli boʻlib, ogʻzaki nutq bilan bir vaqtda oʻstiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2020
2. Oʻzbekiston respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida - T.:2019 y.
3. Tosheva, Nurzoda. "Use of modern information technologies to increase the effectiveness of language learning: use of modern information technologies to increase the effectiveness of language learning." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 1.1 (2021).
4. Tosheva, N. T. "Pedagogical and psychological approaches to the development of cognitive activity of primary school students." *Pedagogical sciences* 6 (2011): 44-46.
5. Tosheva, Nurzoda. "Katta yoshdagi bolalarni oilaviy va milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalash." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 1.1 (2021).